
YANGI BOG'CHA MAHALLADAGI 50 NAFAR BOLANING ZAMONAVIY TALIM-TARBIYA OLISHIGA XIZMAT QILADI

Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz!

????Tumanimizning "Miskin" mahallasida " Oltin vodiy" oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti o'z faoliyatini boshladi. Yangidan qurib bitkazilgan 113-sonli oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotining foydalanishga topshirilishi ayni eng aziz va eng ulug' bayram arafasida bolajonlar uchun munosib sovg'a bo'ldi. Tadbirkor A'zamjon Lutfullaev 4 nafar mahalladoshini doimiy ish bilan ta'minladi.

📍Ochilish marosimida tuman hokimi, sektor rahbarlar, tuman Maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'limi mudiri, nuroniyalar va mahalla faollari ishtirok etishdi.

????Tuman hokimi mahalla ahlini va bolajonlarni ushbu yangi maskan bilan muborakbod etdi. Ramziy tasma qirgilib, ishtirokchilar bu yerda bolajonlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdilar.

????Maktabgacha ta'lim tashkiloti 50 o'ringa mo'ljallangan bo'lib, ushbu muassasada bolajonlarning ta'lim-tarbiya olishlari va mazmunli hordiq chiqarishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan.

2022-08-19 14:07:44